




## 2021- yilning yanvar-aprel oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Xorazm viloyatida jami **974,9** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **100,1 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **69,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **103,8 %** ga koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **0,2 %** punktga koʻpayib, **7,2 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



OʻSISH SURʼATI **103,8 %**

2020- yil  
yanvar-aprel


2021- yil  
yanvar-aprel

**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **26,6 %** yoki 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **56,4 %**), Xiva tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **18,1 %** yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **12,6 m.**) va Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **13,7 %**, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **119,7 %**) ga toʻgʻri keldi.



### Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **65,5 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-aprel oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,7 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **97,7 %** ni tashkil etgan holda **638,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **27,3 %** ni tashkil etdi yoki **266,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish **105,6 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**

*o'sish sur'ati, % da*

*ulushi, % da*



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **63,0** mlrd. so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **911,9** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,5 %** va **93,5 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**

*ulushi, % da*





**2021- yilning yanvar-aprel oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>974,9</b>	<b>63,0</b>	<b>6,5</b>	<b>911,9</b>	<b>93,5</b>
<b>Urganch sh.</b>	260,0	18,5	7,1	241,5	92,9
<b>Xiva sh.</b>	74,6	3,9	5,2	70,7	94,8
<b>tumanlar:</b>					
<b>Bog'ot</b>	56,8	6,6	11,6	50,2	88,4
<b>Gurlan</b>	49,0	5,4	11,0	43,6	89,0
<b>Qo'shko'pir</b>	50,2	4,4	8,8	45,8	91,2
<b>Urganch</b>	88,0	2,4	2,7	85,6	97,3
<b>Hazorasp</b>	43,6	4,3	9,9	39,3	90,1
<b>Tuproqqal'a</b>	28,7	0	0	28,7	100,0
<b>Xonqa</b>	81,1	2,6	3,2	78,5	96,8
<b>Xiva</b>	80,4	0	0	80,4	100,0
<b>Shovot</b>	64,3	7,7	12,0	56,6	88,0
<b>Yangiariq</b>	53,9	3,1	5,8	50,8	94,2
<b>Yangibozor</b>	44,3	4,1	9,3	40,2	90,7

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2021- yil yanvar-aprel

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 69,3 % yoki **675,8** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

69,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **65,7** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,7 % ni tashkil etdi.

9,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **368,5** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 54,5 % ni tashkil etdi.

54,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **241,6** mlrd. so‘mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 35,8 % ni tashkil etdi.

35,8 %




**2021- yilning yanvar-aprel oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>974,9</b>	<b>100,1</b>	<b>675,8</b>
<b>Urganch sh.</b>	260,0	93,1	186,3
<b>Xiva sh.</b>	74,6	102,3	51,1
<b>tumanlar:</b>			
<b>Bog'ot</b>	56,8	100,3	32,3
<b>Gurlan</b>	49,0	97,3	32,9
<b>Qo'shko'pir</b>	50,2	101,7	32,4
<b>Urganch</b>	88,0	100,2	53,4
<b>Hazorasp</b>	43,6	107,2	32,4
<b>Tuproqqal'a</b>	28,7	124,3	23,2
<b>Xonqa</b>	81,1	108,7	60,8
<b>Xiva</b>	80,4	105,8	51,8
<b>Shovot</b>	64,3	100,2	48,0
<b>Yangiariq</b>	53,9	98,4	45,3
<b>Yangibozor</b>	44,3	100,4	25,9

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2021- yil yanvar-aprel oylarida**

*mlrd.s'om*

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>974,9</b>	<b>666,5</b>	<b>231,9</b>	<b>76,5</b>
<b>Urganch sh.</b>	260,0	137,1	101,6	21,3
<b>Xiva sh.</b>	74,6	52,4	20,6	1,6
<b>tumanlar:</b>				
<b>Bog'ot</b>	56,8	39,2	13,1	4,5
<b>Gurlan</b>	49,0	38,3	6,6	4,1
<b>Qo'shko'pir</b>	50,2	39,7	8,1	2,4
<b>Urganch</b>	88,0	62,5	20,3	5,2
<b>Hazorasp</b>	43,6	36,4	6,8	0,4
<b>Tuproqqal'a</b>	28,7	22,4	5,9	0,4
<b>Xonqa</b>	81,1	51,7	5,1	24,3
<b>Xiva</b>	80,4	55,8	22,5	2,1
<b>Shovot</b>	64,3	48,1	8,5	7,7
<b>Yangiariq</b>	53,9	48,5	4,6	0,8
<b>Yangibozor</b>	44,3	34,4	8,2	1,7

2021- yilning yanvar-aprel oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm

Urganch sh.

260,0

Urganch

88,0

Xiva

80,4

Xiva sh.

74,6



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Urganch shahri (260,0 mlrd. so'm), Urganch (88,0 mlrd. so'm), Xiva (80,4 mlrd. so'm) tumanlari hamda Xiva shahriga (74,6 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.



## **XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

---

**Xorazm viloyati  
statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (62)224-65-22**